

# DISCOVER SAMARKAND

by Visit Uzbekistan

## Exploring New Horizons

Interview with the General Director of Air Samarkand

## Yangi Marralar Sari

"Air Samarkand" bosh direktori bilan intervyu

## 24 Hours in Samarkand

Must-visit places

## Samarqandda 24 Soat

Tashrif uchun asosiy joylar

## Workshops of Samarkand

Where to buy memorable gifts

## Samarqand Ustaxonalari

Esdalik sovg'alarini xarid qilish joylari



# LOTOS

## CONFIDENCE WITH A POLISHED LOOK

**LOTOS dry cleaner:**  
6 locations across the city

## TASHQI KO'RINISHNING ISHONCHLI MAVQE'I

**LOTOS kimyoviy tozalash:**  
shahar bo'ylab 6 ta filial



Google Play



App Store

Tel: +998(90)0-357-357



## DEAR PASSENGERS!

We are pleased to welcome you on board Air Samarkand. Welcome to a world of exciting adventures, strong emotions and unforgettable flights!

You are holding the first issue of our in-flight magazine, **Discover Samarkand**. Its pages will tell you about our legendary city, offer fascinating stories and useful tips for travellers, and reveal some of the secrets of the aviation world. We are sure that **Discover Samarkand** will become your faithful companion, create a pleasant mood and brighten your travels.

We are proud that our airline was born in Samarkand, a city that has been attracting travellers from all over the world for centuries, connecting East and West. Today, Samarkand is acquiring a new presence on the modern, airborne equivalent of the ancient Silk Road and playing a key role in the development of Uzbekistan as a tourism and business hub.

## HURMATLI YO'LOVCHILAR!

"Air Samarkand" aviakompaniyasi bortiga xush kelibsiz! Sizni qiziqarli sarguzashtlar, yangi hissiyotlar va unutilmas parvozlar olamida kutib olishdan mamnunmiz!

Qo'lingizda ushlab turgan "**Discover Samarkand**" jurnali aviakompaniyamizning birinchi son jurnali hisoblanadi. Ushbu sahifalar orqali afsonaviy shahrimiz haqida bilib olishingiz, sayohatchilar uchun foydali maslahatlar va qiziqarli hikoyalarni o'qishingiz, hamda aviatsiya olamining ayrim sirlaridan boxabar bo'lishingiz mumkin. Ishonchimiz komilki, "**Discover Samarkand**" sizning sodiq hamrohingizga aylanadi, yaxshi kayfiyat bilan ulashgan holda, sayohatingizni yanada yorqinroq qiladi.

Bizning aviakompaniyamiz qadimdan Sharq va G'arbni bog'lab kelgan Samarqand shahrida tashkil etilganidan faxrlanamiz. Bugungi kunda Samarqand zamonaviy "Buyuk ipak yo'li"da muhim rol o'ynab, O'zbekistonning turizm va biznes markazi sifatida rivojlanishiga hissa qo'shmoqda.

In 2024, we opened routes to several key destinations – Istanbul, Abu Dhabi, Sharm El-Sheikh, Jeddah – and launched tourism programmes to Nha Trang and Phu Quoc. And this is just the beginning! We're looking forward to expanding our fleet and introducing new routes. We are committed to providing the highest level of service and safety at every stage of your flight.

Thank you for choosing Air Samarkand! We wish you a comfortable journey full of discoveries and highlights, and look forward to seeing you on board again.

Best regards,

**Oleg Ivanov, Project Executive,**  
**Discover Samarkand editorial team and Air Samarkand team.**

2024-yilda biz Istanbul, Abu-Dabi, Sharm al-Shayx va Jidda kabi bir qator asosiy yo'nalishlarga reyslar ochdik, shuningdek, Nha Trang va Fukuoka turizm dasturlarini boshladik. Va bu hali boshlanishi! Biz flotimizni kengaytirishni va yangi yo'nalishlarni joriy etishni rejalashtirmoqdamiz. Har bir parvoz bosqichida yuqori darajada xizmat ko'rsatish va xavfsizlikni ta'minlash uchun bor imkoniyatimizni ishga solamiz.

"Air Samarkand" aviakompaniyasini tanlaganingiz uchun tashakkur! Sizga kashfiyotlar va yorqin daqiqalarga boy qulay sayohat tilaymiz va sizni yana bortimizda ko'rishni intilqilik bilan kutamiz.

Eng yaxshi tilaklar ila,

**Oleg Ivanov, loyiha rahbari,**  
**"Discover Samarkand" tahririyati va "Air Samarkand" jamoasi.**

# DISCOVER SAMARKAND

★ Air Samarkand

## Air Samarkand Team

### Project Executive

Oleg Ivanov

### Project Coordinator

Aziza Rasulova

## Dinara&Co. Team

### Publisher

Dinara Dultayeva

### Editor-in-Chief

Sabina Odinaeva

### Administration Team

Kamila Aliyeva

### Project Coordinator

Elmira Bekmurodova

### Editor and proofreader (English)

Rolando Montecalvo

### Interpreter and proofreader (Uzbek)

Muborak Yangiboeva

### Graphic Designer

Rustam Fedorov

## "Air Samarkand" Jamoasi

### Loyiha boshlig'i

Oleg Ivanov

### Loyiha koordinatori

Aziza Rasulova

## Dinara&Co. Jamoasi

### Nashriyotchi

Dinara Dultayeva

### Bosh muharrir

Sabina Odinaeva

### Ma'muriyat jamoasi

Kamila Aliyeva

### Loyiha koordinatori

Elmira Bekmurodova

### Muharrir va musahhih (Ingliz tili)

Rolando Montecalvo

### Tarjimon va musahhih (O'zbek tili)

Muborak Yangiboeva

### Grafik dizayner

Rustam Fedorov

### Visit Uzbekistan Magazine

2025, Special Issue  
Dinara Media Relations PC  
Dinara&Co. Trademark  
Tel.: +998 (93) 500-55-65  
www.dinara.co  
info@dinara.co

The Discover Samarkand is a special issue of Visit Uzbekistan magazine. The magazine is registered by Press and

Information Agency of Uzbekistan on 12.05.2017.

Registration number No. 0915 | ISSN 2181-9254

Circulation 3 000 copies.

Printed by "Jurabek Print" Kattasu street, Kibray district, Tashkent region, Uzbekistan.

Order No.

All rights reserved

© Dinara&Co. © Dinara Dultayeva

### Visit Uzbekistan Magazine

2025, Maxsus Soni

"Discover Samarkand" — "Visit Uzbekistan" jurnalining maxsus soni. Jurnal O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 12.05.2017 yilda ro'yxatga olingan.

Ro'yxatdan o'tish raqami №. 0915 | ISSN 2181-9254

3000 nusxa.

"Jurabek Print" nashriyotida chop etilgan

O'zbekiston, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Kattasu ko'chasi. Buyurtma raqami №

Barcha huquqlar himoyalangan

© Dinara&Co. © Dinara Dultayeva

# CONTENTS

## Mundarija

6

Travel destinations with Air Samarkand



12

Exploring New Horizons: Interview with the General Director of Air Samarkand

16

The most Instagrammable locations of Samarkand



48

Map of plov: types of Uzbek plov by regions of the country

54

Uzbek fairy tale Zumrad and Qimmat and a fascinating game for children



62

Ask a Pilot: captain of an Airbus A330 Konstantin Goryushkin talks about working in the sky

6

"Air Samarkand" aviakompaniyasining sayohat yo'nalishlari

12

Yangi Marralar Sari: "Air Samarkand" bosh direktori bilan intervyu

16

Samarqanddagi Instagram uchun eng mos joylar

48

Palov xaritasi: o'zbek palovining hududlar bo'yicha turlari

54

"Zumrad va Qimmat" xalq ertagi va bolalar uchun qiziqarli o'yin

62

Pilot bilan suhbat: Airbus A330 kapitani Konstantin Goryushkin parvozlar haqida

## COVER: AIR SAMARKAND FLIGHT ATTENDANTS

Venue: Eternal City, Samarkand

## MUQOVADA: "AIR SAMARKAND" BORT KUZATUVCHILARI

Manzil: "Boqiy shahar", Samarqand

★ Air Samarkand 2024 №1

DISCOVER SAMARKAND



## TRAVEL DESTINATIONS with Air Samarkand

### Air Samarkand Aviakompaniyasining Sayohat Yo'nalishlari

Text by Aziza Rasulova

#### **Sharm El-Sheikh:**

##### *A Paradise for Sun Seekers and Underwater Enthusiasts*

Sharm El-Sheikh is one of Egypt's most beloved resorts, drawing tourists year-round with its perfect climate, the Red Sea, and a rich underwater world that's nothing short of magical. Divers and snorkelers flock here for a good reason — coral reefs and an impressive variety of marine life await just below the surface.

With **Air Samarkand's** direct flights in collaboration with **EasyBooking**, your trip to Sharm El-Sheikh promises both comfort and convenience. Opt for an all-inclusive package so you can focus on soaking in the fun.

#### **Sharm al-Shayx:**

##### **Dam olishni va suv ostidagi sarguzashtlarni sevuvchilar uchun jannat**

Sharm al-Shayx Misrdagi eng mashhur kurortlardan biri bo'lib, u ideal iqlimi, issiq Qizil dengizi va boy suv osti dunyosi tufayli yil davomida sayyohlarni o'ziga jalb qiladi. Bu marjon riflarni va turli xil dengiz hayotini o'rganish uchun sho'ng'igan ishqibozlar uchun haqiqiy jannatdir.

**"Air Samarkand"** **"EasyBooking"** agentligi bilan birgalikda Sharm al-Shayxga to'g'ridan-to'g'ri reyslarni taklif etadi. Bu dam olishni rejalashtirayotganda qulaylikni qidirayotganlar uchun ajoyib tanlovdir. "Hammasi inklyuziv" paketlar bilan, siz hech narsa haqida qayg'urishingiz shart emas, shunchaki dam olsangiz kifoya!



#### **Phu Quoc:**

##### *Vietnam's Tropical Gem*

Dreaming of a serene getaway with unspoiled nature? Phu Quoc is your ticket to paradise. Nestled in the South China Sea, Vietnam's largest island has managed to maintain its laid-back charm by staying under the radar for years. The beaches here are show-stoppers. Long Beach, with miles of pristine white sand, is perfect for sunbathers, while Bai Sao serves up a picture-perfect "Bounty" setting with swaying palms and azure waters.

Getting there has never been easier, thanks to **Air Samarkand's** direct flights operated in partnership with Vietnam-based **Crystal Bay Tours**. And the all-inclusive packages available through many Uzbek travel agencies make it a hassle-free choice for your next big escape.

#### **Fukuok - Vyetnamning jannat oroli**

Fukuok oroli toza, boy tabiatda dam olishni orzu qilganlar uchun ideal tanlovdir. Vyetnamning eng katta oroli Janubiy Xitoy dengizida joylashgan bo'lib, uzoq vaqtdan beri sayyohlar orasida deyarli mashhur bo'lmagan, bu esa unga o'ziga xos atmosferani saqlab qolish imkonini bergan. Fukuok kun bo'yi quyosh to'shagida dam olishdan ko'ra ko'proq narsani bajarishni yaxshi ko'radiganlar uchun to'lqinlar, ekoturular va sharsharalar, o'rmonlar va qo'riqxonalariga tashrif buyurishni taklif qiladi.

Endi bu jannatmakon orolga borish osonlashdi – **"Air Samarkand"** tez va qulay parvozni ta'minlab, Fukuokga to'g'ridan-to'g'ri reyslarni taklif etadi. Ushbu reys shtab-kvartirasi Vyetnamda joylashgan "Crystal Bay" turoperatori bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. **"Crystal Bay"** dan paketli turlar O'zbekistondagi ko'plab sayyohlik agentliklari orqali, shuningdek, onlayn tarzda tarqatiladi.



#### **Jeddah:**

##### *Desert Marvel and Gateway to Mecca*

Jeddah is a bustling multicultural hub and the main gateway for pilgrims en route to the holy city of Mecca. Situated on the Red Sea coast, it hosts the nearest airport to Mecca, making it an essential stop for those embarking on Hajj or Umrah.

For pilgrims, the journey to Jeddah is a time for reflection, and the direct flights by **Air Samarkand** departing from various Uzbek cities provide a seamless, comfortable experience. Just a five-hour flight, and about two hours more to reach Mecca.

#### **Jidda: Cho'ldagi mo'jiza va Makkaning darvozasi**

Jidda yorqin va ko'p madaniyatli shahar hisoblanib, muqaddas Makka shahriga ziyorat qiluvchi musulmonlar uchun asosiy transport markazidir. Qizil dengiz sohilida joylashgan shahar eng katta va Makkaga eng yaqin aeroportga ega bo'lib Haj yoki Umra ziyoratiga boruvchilar uchun qulay va muhim bekatdir.

Ziyorat - bu tafakkur, mulohaza yuritish, ma'naviy bilimlar vaqti. **"Air Samarkand"** aviakompaniyasi O'zbekistonning bir qator shaharlaridan to'g'ridan-to'g'ri reyslarni amalga oshirishi tufayli parvoz taxminan besh soat davom etadi va yetib kelganingizdan so'ng ikki soatdan kamroq vaqt ichida muqaddas Makkaga yetib olishingiz mumkin.





## Istanbul:

### *Where Europe Meets Asia*

Istanbul is more than just a city; it's a living tale of history meeting modernity. Straddling two continents, it's a cultural treasure trove ready for discovery, made simple by Air Samarkand's direct flights from Samarkand.

Wander through the Old City and you'll stumble upon iconic sites like Hagia Sophia, a testament to centuries of splendour and harmony, and Topkapi Palace, steeped in Ottoman intrigue. The Blue Mosque, with its elegant minarets and mosaics, stuns visitors with its beauty and scale.

### **Istanbul: Yevropa va Osiyo birlashgan joy**

Istanbul shunchaki shahar emas, balki tarix bilan zamonaviylik uchrashadigan joy. Ikki qit'ani kesib o'tgan shahar boy madaniy meros va zamonaviy yutuqlarni ochib beradi. **"Air Samarkand"** aviakompaniyasining Samarqanddan to'g'ridan-to'g'ri parvozlari bu noyob dunyoni kashf qilishni osonlashtiradi.

Eski shahar bo'ylab sayr qilar ekansiz, asrlar davomida ulug'vorlik va uyg'unlik ramzi bo'lib qolgan Ayasofya, Usmonli sultonlarining sirlarini saqlagan To'pqopi saroyi kabi diqqatga sazovor joylarni ko'rishingiz mumkin. Ko'k masjid o'zining nafis minoralari va go'zalligi, ulug'vorligi bilan sizni hayratga soladi.



## Abu Dhabi:

### *An Oasis for Modern Explorers*


Abu Dhabi is where tradition meets innovation. Under the warm Arabian sun you'll find endless white beaches, golden deserts, awe-inspiring architecture and the rich culture of the Emirates. With over 400 km of coastline, Abu Dhabi offers pristine beaches perfect for sunbathing and water sports. The Persian Gulf's calm waters make for safe swimming, so they are ideal for families.

Shopaholics, rejoice! Abu Dhabi's malls brim with brands from around the world, great deals, and the perk of VAT refunds for tourists. And if you crave more, Dubai is just a short drive away.

### **Abu Dabi: zamonaviy sayohatchilar uchun maxsus voha**

Abu Dabi – an'analar va innovatsiyalar bir-biri bilan uchrashadigan shahar. Bu yerda, jazirama arab quyoshi ostida cheksiz oppoq plyajlar, oltin cho'llar, mahobatli me'morchilik va Amirliklarning betakror madaniyati sizni kutmoqda. 400 kilometr ga yaqin qirg'oq bo'yida oftobda toblanish va suv sporti uchun ideal bo'lgan mukammal plyajlarni topasiz. Fors ko'rfazi tinch va dengizga oson kirish imkoniyatiga ega, shuning uchun bolalar bilan dam olayotgan bo'lsangiz, xotirjam bo'lishingiz mumkin.

Shopping haqida unutmang! Butun dunyodagi brendlarning katta tanlovi, a'lo narxlar va yoqimli bonus sifatida sayyohlar uchun imtiyozlar bor. Agar sizga bular yetarli bo'lmasa, Dubay atigi bir yarim soatlik masofada.



## Tashkent:

### *Rediscover Our Nation's Capital*

For travellers who have already experienced the grandeur of Samarkand, Tashkent offers a different facet of Uzbekistan that is equally captivating. With direct flights from Samarkand by **Air Samarkand**, reaching the bustling capital has never been more convenient.

With its wide boulevards and verdant parks, Tashkent may seem familiar, but it holds countless surprises for those willing to explore further. The city harmoniously blends Soviet-era architecture, ancient monuments and modern developments. From cutting-edge art galleries and trendy cafes to historical sites like the Khast Imam complex, Tashkent has something new to offer with every visit.

### **Toshkent: har doim yangi bir kashfiyot**

Toshkent – ko'pchiligimiz qayta-qayta keladigan va har safar yangi kashfiyotlarni topadigan shahar hisoblanadi. Samarqanddan to'g'ridan-to'g'ri reyslar tufayli poytaxtga sayohatlar yanada oson va qulayroq bo'ladi.

Toshkentning keng xiyobonlari va yam-yashil bog'lari shaharni siz uchun go'yo tanishdek qilishi mumkin, biroq u yanada chuqurroq o'rganishni xohlovchilar uchun ko'plab kutilmagan zavqlanishlarni taqdim etadi. Shahar sovet davri me'morchiligini, qadimiy yodgorliklarni va zamonaviy rivojlanishlarni uyg'un tarzda birlashtirgan. Toshkentda har bir tashrifda yangilik taqdim etuvchi san'at galereyalari va zamonaviy kafelardan tortib, Xast Imom majmuasi kabi tarixiy joylar ko'p.

# Visa-Free Uzbekistan



The Visa-Free Countries for Uzbekistan have been allowed different periods of exemption such as stays of 90 days, 60 days, and 30 days.

## NO TIME LIMIT

Georgia, Kazakhstan, Moldova, Russia, Armenia, Ukraine, Azerbaijan, Belarus

## 60 DAYS

Kyrgyzstan

## 30 DAYS

Australia, Republic of Austria, Republic of Argentina, Bosnia and Herzegovina, The Vatican, Grand Duchy of Luxembourg, Hungary, State of Brunei-Darussalam, State of Israel, Republic of Greece, Ireland, Iceland, Italy, Canada, Principality of Andorra, Principality of Liechtenstein, Principality of Monaco, Kingdom of Belgium, Kingdom of Denmark, Kingdom of Spain, Kingdom of the Netherlands, Kingdom of Norway, Kingdom of Sweden, Republic of Latvia, Qatar and others. Also citizens of the People's Republic of China (in tourist groups), the United States and Vietnam who are 55 years of age or older.

For more information, visit [www.uzbekistan.travel](http://www.uzbekistan.travel).

## UP TO 10 DAYS

Kingdom of Bahrain, State of Qatar, State of Kuwait, Sultanate of Oman and the People's Republic of China, including the Hong Kong and Macao Special Administrative Regions of the People's Republic of China, provided that they submit air tickets on departure to their own or a third country.

## ABOUT E-VISA

When passing the State Border of the Republic of Uzbekistan and while staying in the country, foreign citizen must present a valid travel document (passport) and electronic visa in printed or electronic form.

In order to apply for an e-visa, a foreign citizen sends an application to the official e-visa portal of the Republic of Uzbekistan at [www.e-viza.gov.uz](http://www.e-viza.gov.uz).

For consideration of the application for an e-visa, a consular fee of \$20 is collected via a portal for international payment systems. In this case, the applicant does not have to be a cardholder. The amount of the consular fee is charged only for consideration of the application for an e-visa and is not refundable. A foreign citizen may be denied an e-visa in cases established by the legislation of the Republic of Uzbekistan. In this case, the corresponding refusal notice is sent to the e-mail address of the foreign citizen.

# O'zbekistonga vizasiz kirish imkoniyatiga ega bo'lgan davlatlar ro'yxati



O'zbekiston uchun vizasiz davlatlar turli istisnolarda bo'lib, 90 kunlik, 60 kunlik va 30 kunlik muddatda vizasiz kirish imkoniyatiga ega.

## CHEKLANMAGAN VAQT

Gruziya, Qozog'iston, Moldova, Rossiya, Armaniston, Ukraina, Ozarbayjon, Belarus

## 60 kun

Qirg'iziston

## 30 KUN:

Avstraliya Ittifoqi, Avstriya Respublikasi, Argentina Respublikasi, Bosniya va Gertsegovina, Vatikan, Lyuksemburg Buyuk Gertsogligi, Vengriya, Bruney-Darussalom davlati, Isroil davlati, Gretsiya Respublikasi, Irlandiya, Islandiya, Italiya Respublikasi, Kanada, Andorra Knyazligi, Lixtenshteyn Knyazligi, Monako Knyazligi, Belgiya Qirolligi, Daniya Qirolligi, Ispaniya Qirolligi, Niderlandiya Qirolligi, Norvegiya Qirolligi, Shvetsiya Qirolligi, Latviya Respublikasi, Qatar va boshqa davlatlar. Xitoy Xalq Respublikasi fuqarolari (sayyohlik guruhlar tarkibida), shuningdek, 55 yoshdan oshgan AQSh va Vetnam fuqarolari

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun: [www.uzbekistan.travel](http://www.uzbekistan.travel).

## 10 KUNGACHA

O'zbekiston Respublikasi hududiga kirgan kundan boshlab, Bahrayn Qirolligi, Qatar davlati, Quvayt davlati, Ummon sultonligi va Xitoy Xalq Respublikasi (shu jumladan, Xitoy Xalq Respublikasining Gonkong va Makao maxsus ma'muriy hududlari) fuqarolari uchun 10 kun muddatga vizasiz tashrif ruxsat etiladi. Bunda ular o'z yurtlariga yoki uchinchi davlatga jo'nab ketish uchun aviabiletlarini taqdim etishlari shart.

## ELEKTRON VIZA HAQIDA

O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasidan o'tish va mamlakatda bo'lish vaqtida xorijiy fuqaro amal qiluvchi sayohat hujjati (pasport) va bosmadan chiqarilgan yoki elektron shakldagi elektron vizani taqdim etishi kerak.

Xorijiy fuqaro e-viza olish uchun O'zbekiston Respublikasining rasmiy e-viza portaliga ([www.e-viza.gov.uz](http://www.e-viza.gov.uz)) ariza yuboradi.

Arizani ko'rib chiqish uchun portalga integratsiya qilingan xalqaro to'lov tizimlari orqali \$20 miqdorida konsullik yig'imi to'lanadi. Ushbu to'lov karta egasining o'zi tomonidan amalga oshirilishi shart emas. To'lov faqat e-viza arizasini ko'rib chiqish uchun undiriladi va qaytarilmaydi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan hollarda xorijiy fuqaroga e-viza berish rad etilishi mumkin. Bunday holda, rad etish haqidagi xabarnoma xorijiy fuqaroning elektron pochta yuboriladi.



# EXPLORING NEW HORIZONS

## Yangi Marralar Sari

*In this very first issue, we introduce you to the person whose vision shapes our journey — from convenient routes to onboard comfort and exceptional service. Meet Mr. Zafar Butaev, General Director of Air Samarkand, as we ask him the questions you, our valued passengers, want answered.*

*Jurnalimizning birinchi sonida biz sizni qulay marshrutlardan tortib bortdagi qulaylik va ajoyib xizmat haqida qayg'uradigan va qarashlari sayohat tajribamizni shakllantiradigan inson bilan tanishtiramiz. "Air Samarkand" aviakompaniyasi bosh direktori Zafar Bo'taev bilan tanishing. Biz ularga siz, aziz yo'lovchilarimiz javob olmoqchi bo'lgan savollarni beramiz.*

**Greetings, Mr. Butaev. First, please tell us how Air Samarkand came into being.**

I'm pleased you asked this first because the story of Air Samarkand is closely tied to the positive transformations happening in Uzbekistan. Today, our country is embracing the principles of a market economy with increasing confidence. A key feature of this economic shift is healthy competition, driven by the reduction of state monopolies.

Air Samarkand entered the domestic market two years ago, at a time when air travel itself was becoming more competitive. Our airline was born from this momentum, aiming to offer passengers something truly new and exceptional.

**What does it take to succeed in this competitive market and win the trust of passengers?**

Success today hinges on a few key factors: an impeccable reputation for safety, excellent service, innovative solutions that enhance passenger convenience, flexible pricing, and, of course, flights to popular and in-demand destinations. These priorities are at the heart of our operations.

We constantly strive to be creative and forward-thinking, even though it's no easy task. However, such efforts are always noticed and appreciated by our passengers. Their trust and choice of Air Samarkand inspire us to keep moving forward.

**The presence of a local airline must have had a significant impact on Samarkand, particularly for tourism. How do you see this evolution?**

Absolutely. Samarkand today is quite different from what it was even five years ago. New world-class facilities have appeared, such as the Silk Road Tourist Centre and the modern airport terminal. Air Samarkand has become an integral part of this development, helping the city realize its full potential as a major destination.

Having a local airline has also provided a powerful boost to tourism, making it easier for visitors to experience the rich history and beauty of our ancient city.

**Samarkand has always been globally renowned, and its airport has long received international flights. How has this changed with Air Samarkand?**

For a city with such a prominent name, demand for flights has always exceeded supply. The launch of Air Samarkand creates new opportunities for travelers, offering direct flights that save both time and money.

***Xushvaqt bo'ling, Zafar Abdullayevich! Iltimos, avval bizga "Air Samarkand" aviakompaniyasi qanday tashkil topgani haqida aytib bersangiz.***

Bu savol birinchi bo'lib berilganidan xursandman, chunki "Air Samarkand" aviakompaniyasining tashkil etilishi O'zbekistonda ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq. Bugun mamlakatimiz bozor iqtisodiyoti sharoitida tobora ishonch bilan ish yuritmoqda. Va uning asosiy xususiyatlaridan biri - sog'lom raqobat, hech qanday sohada monopoliyaning yo'qligida. Havo qatnovlarida raqobatbardosh bo'lish kerak bo'lgan vaqt keldi - chunki yagona aviakompaniya qatoriga boshqalari ham yaratila boshladi.

Ana shunday o'zgarishlar tufayli ikki yil avval yangi "Air Samarkand" aviakompaniyasi ichki bozorga kirib keldi.

***Bu raqobatbardosh bozorda muvaffaqiyatga erishish va yo'lovchilarning ishonchini qozonish uchun nimalar kerak?***

Bugungi kunda muvaffaqiyat bir necha asosiy omillarga bog'liq: xavfsiz aviatashuvchi imidji, a'lo darajada xizmat ko'rsatish, yo'lovchilarning qulayligini oshirish uchun innovatsion yechimlar, moslashuvchan narx siyosati va, albatta, mashhur va talabi bor manzillarga reyslar. Ushbu ustuvorliklar bizning faoliyatimizning markazida turibdi.

Biz doimo ijodiy va kelajakka e'tibor bilan yondashishga harakat qilamiz, gohida bu oson emas. Ammo bunday sa'y-harakatlar har doim yo'lovchilarimiz tomonidan e'tirof etiladi va qadrlanadi. Ularning ishonchi va "Air Samarkand" aviakompaniyasini tanlashlari bizga oldinga qarab harakat qilishga ilhom beradi.

***Mahalliy aviakompaniyaning mavjudligi Samarqandga, ayniqsa turizm sohasiga katta ta'sir ko'rsatgan bo'lsa kerak. Ushbu evolyutsiyani qanday baholaysiz?***

Shubhasiz. Bugungi Samarqand besh yil oldingisidan tubdan farq qiladi. "Silk Road Samarkand" turistik markazi va zamonaviy aeroport terminali kabi jahon andozalariga mos yangi ob'ektlar paydo bo'ldi. "Air Samarkand" ushbu taraqqiyotning ajralmas qismiga aylanib, shaharning asosiy yo'nalishi sifatida o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga yordam berdi.

Mahalliy aviakompaniyaning mavjudligi sayyohlik rivojlanishiga ham kuchli turtki bo'lib, mehmonlarga qadimiy shahrimizning boy tarixi va go'zalligi bilan tanishishlarini osonlashtirdi.

***Samarqand azaldan butun dunyoga mashhur bo'lib, uning aeroporti uzoq vaqtdan beri xalqaro reyslarni qabul qilib kelmoqda. "Air Samarkand" bilan vaziyat qanday o'zgarishlar ro'y berdi?***

Darhaqiqat, shahrimizning buyuk nomi tufayli reyslarga, ayniqsa, eng mashhur yo'nalishlarga bo'lgan talab taklifdan sezilarli darajada oshdi. "Air Samarkand" aviakompaniyasining tashkil etilishi to'g'ridan-to'g'ri reyslardan ko'proq foydalanish imkonini berdi va bu, albatta, aviayo'lovchilarimiz uchun vaqt va mablag'ni tejaydigan yana bir qulaylik darajasidir.

We are committed to continuously developing products and services that address specific passenger needs. While this presents great challenges, it also opens up exciting new possibilities for our team.

## You mentioned competition earlier. Who would you consider Air Samarkand’s primary competitors?

It’s important to note that Air Samarkand is based in Samarkand, whereas most other airlines in Uzbekistan operate out of Tashkent. As such, there’s no direct competition within the domestic market. Each airline is focused on developing its own niche.

At the international level, airlines from Turkey and the Middle East are among our most significant competitors. However, their presence motivates us to constantly improve — to offer unique products, competitive pricing, and a level of comfort that sets us apart.

## Air Samarkand has been operating for over a year. What were the key challenges you faced during the launch and development phase?

I joined Air Samarkand at the beginning of 2024, at which point the airline already had a fleet of three aircraft operating charter flights. Our most pressing task was to launch regular scheduled flights and scale up our operations.

Aviation is a unique and demanding industry where every detail matters — right down to the nuts and bolts of an aircraft. Nothing can be overlooked because safety and passenger comfort are our top priorities.

Aviation also requires thoughtful, large-scale investments that deliver long-term results. We’re fully prepared for this, as the past year has demonstrated a clear need for a reliable airline based in Samarkand. We are committed to building a strong fleet, training a skilled team, and expanding both our destinations and the number of direct flights we offer.

## What are Air Samarkand’s key goals for the coming year?

In 2025, we plan to acquire several additional aircraft and launch direct flights to regions that currently lack convenient connections from Samarkand.

We’re also focused on introducing new service offerings, learning from the world’s best practices in aviation, and applying them at home. Improving safety and enhancing passenger comfort will remain our priorities. Every Air Samarkand flight should offer a seamless, premium experience that leaves passengers with only the most positive impressions.

Shunday qilib, Samarqandga sayohatni yanada qulay va oson qilish imkoniyati paydo bo’ldi. Shu bilan birga, biz yo’lovchilarning o’ziga xos muammolarini hal qiladigan yangi yuqori sifatli mahsulotni doimiy ravishda ishlab chiqishga intilamiz. Bu bizning mutaxassislarimiz oldiga katta vazifalarni qo’yish bilan birga, yangi imkoniyatlarni ham yaratadi.

## Yuqorida siz raqobat haqida gapirdingiz. “Air Samarkand”ning asosiy raqobatchilari kim deb hisoblayasiz?

Shu o’rinda shuni hisobga olish kerakki, bizning aviakompaniyamiz Samarqandda tashkil etilgan va O’zbekistondagi boshqa aviakompaniyalarning aksariyati Toshkentda joylashgan. Ya’ni, bizning oramizda to’g’ridan-to’g’ri raqobat mavjud emas, har kim o’z joyida faoliyatni rivojlantirish bilan band.

Lekin xalqaro miqyosda Turkiya va Yaqin Sharqdagi aviakompaniyalarni raqobatchi sifatida nomlashim mumkin. Bilasizmi, bunday nufuzli raqiblar bizni allaqachon erishilgan yutuqlar bilan to’xtab qolmaslikka, qulay sharoit, hamyonbob narxlarni yaratishga va takliflarimizni yanada yaxshiroq qilishga undaydi.

## “Air Samarkand” aviakompaniyasi bir yildan ortiq vaqtdan beri faoliyat yuritmoqda. Ishga tushirish va rivojlanish bosqichida qandayasosiy qiyinchiliklarga duch keldingiz?

Men jamoaga 2024-yil boshida qo’shildim, shu paytda “Air Samarkand” o’zining uchta samolyotdan iborat parkiga ega bo’lgan va charter reyslarini amalga oshirgan. Bizning eng dolzarb vazifamiz muntazam reyslarni yo’lga qo’yish va faoliyatimizni kengaytirish edi.

Aviatsiya bu – hattoki samolyot vinti va yangi ko’rsatmalargacha har bir tafsilot muhim bo’lgan ajoyib soha. Bu yerda hech narsani keyinga qoldirib bo’lmaydi, chunki biz uchun asosiy narsa parvoz xavfsizligi va yo’lovchilarning maksimal qulayligi.

Aviatsiya, shuningdek, uzoq muddatli natijalarni beradigan aqlli, keng ko’lamli investitsiyalarni talab qiladi. Biz bunga to’liq tayyormiz, chunki o’tgan yil Samarqandda joylashgan ishonchli aviakompaniyaga bo’lgan ehtiyojni yaqqol ko’rsatdi. Biz kuchli flot qurish, malakali jamoani tayyorlash va ikkalayo’nalish va to’g’ridan-to’g’ri reyslar sonini kengaytirish niyatidamiz.

## “Air Samarkand” kelgusi yil uchun o’z oldiga qanday maqsadlarni qo’ymoqda?

Biz 2025-yilda yana bir nechta samolyot sotib olishni, shuningdek, Samarqanddan ilgari qulay aloqalar bo’lmagan hududlarga to’g’ridan-to’g’ri reyslar ochishni rejalashtirganmiz.

Aviakompaniya yangi xizmatlar takliflarini yaratadi, bu borada eng yaxshi global tajribani o’rganadi va uni o’z faoliyatida qo’llashga harakat qiladi. Xavfsizlik va parvozlarni qulayligini oshirish bo’yicha uzluksiz ishlar davom ettiriladi. Chunki “Air Samarkand” aviakompaniyasining har bir reysi yo’lovchilarda faqat yoqimli taassurotlarni qoldirishi, qulay va eng yuqori darajadagi xizmat ko’rsatishi kerak.



## Which destinations do you see as the most promising?

We’re constantly analyzing market trends to identify the most in-demand routes. Collaboration with travel agencies also helps us select destinations that are popular with passengers.

This year, we successfully launched routes to Turkey, Egypt, Saudi Arabia, and the UAE in partnership with EasyBooking. We’re also developing flights to China, South Korea, and Russia. Vietnam is emerging as an attractive holiday destination, and we’re actively working on this with our partner, CrystalBay.

Looking ahead, we see significant potential in other Southeast Asian countries as well as European destinations. Our broader vision is to reconnect East and West through Samarkand, reviving the spirit of the Great Silk Road on a modern scale and reestablishing the city as a significant regional hub.

## Finally, on a personal note: What does aviation mean to you?

For me, aviation is not just a profession — it’s the business of my life. It demands full dedication, precision, and a constant drive for excellence.

This isn’t my first experience with large-scale infrastructure projects, and my personal mission is to build a strong, motivated team capable of developing Air Samarkand dynamically and efficiently.

Most importantly, Air Samarkand gives me the opportunity to contribute to the development of our region and open new horizons for both our citizens and visitors. That’s what makes this work truly meaningful.

## Aviakompaniya qaysi yo’nalishlarni bugungi kunda eng istiqbolli deb hisoblaydi?

Yangi yo’nalishlarni to’g’ri tanlash uchun biz doimo bozorni tahlil qilamiz. Shuningdek, biz sayyohlik agentliklari bilan eng mashhur yo’nalishlarni taklif qilish uchun faol ishlaymiz.

Ular orasida 2024-yilda hamkorimiz “Easy Booking” turoperatiri bilan birgalikda muvaffaqiyatli ishga tushirgan Turkiya, Misr, Saudiya Arabistoni, Amirliklar, shuningdek, Xitoy, Janubiy Koreya va, albatta, Rossiya davlatlariga reyslar bor. Qiziqarli dam olish maskani hozirda Vyetnam bo’lib, biz uni “Crystal Bay” turoperatorini bilan birgalikda rivojlantirmoqdamiz.

Shuningdek, biz Janubi-Sharqiy Osiyodagi boshqa mamlakatlarga va kelajakda Yevropa davlatlariga yo’nalishlarni ham ko’rib chiqish niyatidamiz. Bizning asosiy maqsadimiz Samarqand orqali Sharq va G’arbni bog’lagan holda, Buyuk Ipak yo’li konsepsiyasini zamonaviy darajada o’zida mujassamlashtirish va Samarqandni xaritada yangi muhim nuqtaga aylantirishdir.

## Va ushbu intervyu oxirida shunday shaxsiy savol - aviatsiya siz uchun nimani anglatadi?

Men uchun aviatsiya ham ishim, ham hayotdagi asosiy yo’nalish. Bu faoliyat chinakam to’liq fidoyilikni talab qiladi, boshqacha bo’lishi mumkin ham emas. Shu bilan birga, men bunday yirik infratuzilma loyihalari bilan birinchi marta ishlayotganim yo’q va aniq maqsadim – aviakompaniyani samarali va dinamik rivojlantirishga qodir kuchli jamoa yaratish va muvaffaqiyatga ilhomlantirish.

“Air Samarkand” men uchun, birinchi navbatda, mintaqa rivojiga katta hissa qo’shish va fuqarolarimiz uchun yangi marralarga erishish imkoniyatidir.



# THE MOST INSTAGRAMMABLE LOCATIONS

## INSTAGRAM UCHUN ENG MOS JOYLAR

*Hi everyone, I'm Alika\_guide, a professional tour guide in Uzbekistan. In this issue I share with you the most Instagram-worthy locations in Samarkand. I know that everyone wants to impress their followers, and I'm sure you'll be able to do just that when posting about Samarkand. The city is 2750 years old, and every corner is full of history and beauty.*

*Hammaga salom! Men Alika\_guide, O'zbekiston bo'yicha professional gidman. Ushbu maqolada Samarqandning Instagram uchun eng munosib bo'lgan joylarini siz bilan bo'lishmoqchiman. Har kim o'z obunachilarini hayratda qoldirishni xohlaydi, va aminmanki, Samarqand haqidagi postlaringiz buni amalga oshirishga yordam beradi. Bu shahar 2750 yosh bo'lib har bir burchagi bilan tarix va go'zallikka boy hisoblanadi.*

## Registan Square

The city's calling card consists of three stunning madrasahs. Most often visitors are photographed on the observation deck overlooking the madrasahs or against a background of tiled arches. Few people know that in the courtyard of the Ulugbek Madrasah there is a coffee shop on the first floor where you can enjoy delicious coffee and a beautiful view. As you sit there, you can imagine you've travelled back in time to the Middle Ages while you enjoy the riot of colours and take many photos. The Registan is especially beautiful at night. After 8 pm, a sound and light show is projected onto the façades of the buildings. In addition, every evening young people with video spinners are on duty here, with the help of which you can take spectacular photos and videos with 360-degree coverage.

## Registon Maydoni

Shaharning ramzi hisoblangan ushbu maydon uchta go'zal madrasadan iborat. Mehmonlar ko'pincha madrasalarni kuzatish maydonchasida yoki koshinli arkalar fonida suratga tushishadi. Ulug'bek madrasasining birinchi qavatida joylashgan kafeda ajoyib qahva ichib, go'zal manzaradan zavqlanish mumkinligini ko'pchilik bilmaydi. Shu yerda o'tirib, o'zingizni go'yo o'rta asrlarga qaytgandek his qilasisiz, rang-barang manzarada suratga tushishingiz ham mumkin. Ayniqsa, kechagi Registon juda go'zal, 20:00 dan keyin bino fasadlarida ovoz va chiroqlardan iborat bo'lgan shou namoyishi boshlanadi. Bundan tashqari, har oqshom video spinnerli yoshlar shu yerda xizmat ko'rsatishadi, ular sizga 360 darajali fotosuratlar va videolar olishda yordam berishadi.



## Shah-i Zinda Necropolis

The hilltop necropolis consists of a medieval alley lined with graceful mausoleums covered in sparkling blue tilework. A photo against the backdrop of the octagonal mausoleum is especially striking and postable.

## Shohi Zinda Maqbaralar Majmuasi

Tepalikda joylashgan ushbu nekropol majmuasi o'rta asrlarga oid nafis g'ishtin maqbaralar bilan qoplangan. Ularning har biri esa moviy koshinlar bilan bezatilgan bo'lib, hayratlanarli go'zallikni namoyon etadi. Sakkiz burchakli maqbara fonida olingan surat juda ta'sirli va Instagramga munosibdir.



## Eternal City Ethnopark

This vast new development features reproductions of architectural elements from Samarkand's iconic landmarks: blue domes and mouldings in snow-white *ganch*, azure tile mosaics and intricate brickwork. Here you can take atmospheric and memorable photographs.

### Boqiy Shahar Etnoparki

Bu keng, yangi tashkil etilgan hudud Samarqandning mashhur landshaftlarining arxitektura elementlarini o'zida mujassam etgan: moviy gumbazlar, qordek oppoq ganch ishlovlari, osmon rangidagi mozaikalar va murakkab g'ishtdan terilgan naqshlar... Bu joylarda juda chiroyli va unutilmas suratlar olish mumkin.



## Gur-Emir Mausoleum

The mausoleum is a fine example of medieval architecture. Contemporaries are still fascinated by the harmony of its proportions. The ribbed dome and the walls of the crypt are covered with mosaics of light and dark blue glazed bricks, gilding and paintings. Relief patterns on the dome imitate the starry sky.

### Go'ri Amir Maqbarasi

Maqbara o'rta asr me'morchiligining ajoyib namunalaridan biri hisoblanadi. Zamondoshlar hali ham uning nisbatlarining uyg'unligi bilan hayratda qolishadi. Qabr gumbazi va devorlari ochiq va to'q ko'k rangli sirlangan g'ishtlardan, zar va mozaikalar bilan qoplangan. Gumbazdagi relyef naqshlari yulduzli osmonga taqlid qiladi.

# Useful Phrases



## At the airport Aeroportda

**Where is the check-in counter for the flight to...? - Reys uchun ro'yxatdan o'tish joyi qayerda?**

**I have one carry-on bag and one suitcase - Menda bir qo'l yuki va bir chamadon bor**

**Can I have a window/aisle seat? - Deraza/yo'lak tomondan joy olsam bo'ladimi?**

**I feel a bit airsick. Is there anything you can give me? - Ko'nglim behuzur bo'layotganini his qilyapman. Menga beradigan biror narsangiz bormi?**

**Could you tell me when we will be landing? - Qachon qo'nishimizni ayta olasizmi?**

**I'm sorry to disturb you, but could you help me with this? - Kechirasiz, menga shuni qilishda yordam bera olasizmi?**

**Could I have a blanket/pillow? - Birorta choyshab/yostiqlik bera olasizmi?**

**Where is the gate for my flight? - Mening reysim uchun yo'lak qayerda?**

**Where can I claim my baggage? - Bagajimni qayerdan olishim mumkin?**

**My luggage is damaged - Mening yukimga zarar yetgan**

**Where is the restroom? - Hojatxona qayerda?**

**Where can I exchange money? - Pulni qayerda almashtirsam bo'ladi?**

**I've lost my passport - Men pasportimni yo'qotdim**

**Can I make a phone call? - Telefon qilsam bo'ladimi?**

**Where can I get something to eat? - Yeyishga qayerdan biror narsa olsam bo'ladi?**

**How can I get to the city? - Shaharga qanday borishim mumkin?**

**How much does this cost? - Buni narxi qancha turadi?**

**Can you repeat that, please? - Iltimos, buni yana bir bor takrorlay olasizmi?**

**Have a nice flight - Yaxshi parvoz tilayman**



# 24 HOURS IN SAMARKAND

## SAMARQANDDA 24 SOAT



*Tour guide **Temur Khudayarov**, who is named after the great conqueror Amir Timur (Tamerlane), recommends what you should see in Samarkand if you have only one day to spare.*

*Ismi buyuk hukmdor Amir Temur sharafiga qo'yilgan gid **Temur Xudoyorov**, Samarqandni kashf etishga bor-yo'g'i bir kun vaqtingiz bo'lsa, qaysi joylarga tashrif buyurishingiz haqida tavsiyalar bilan bo'lishmoqda.*



To get to know Samarkand, I would suggest starting with a visit to the main square – the **Registan**. This is one of the most famous architectural ensembles in Central Asia, consisting of three madrasahs: **Ulugbek**, **Sher-Dor** and **Tillya-Kari**. Take time to explore each building and its interior to get a feel for the atmosphere and spirit of the Middle Ages.

After the Registan, head on foot to the **Bibi-Khanim Mosque** via the picturesque pedestrian street named after Islam Karimov. This mosque, built on the orders of Timur, was one of the largest in the Islamic world. Its sheer size and impressive architecture will amaze you.

Samarqand bilan tanishishni Registon maydoniga tashrif bilan boshlashni tavsiya qilaman. Bu Markaziy Osiyodagi eng mashhur me'moriy majmualardan biri bo'lib, uchta madrasadan iborat: **Ulug'bek**, **Sherdor** va **Tillakori**. Har bir bino va uning ichki qismini o'rganishga vaqt ajrating, shunda O'rta asrlarning muhitini va ruhini his qila olasiz.

Registondan so'ng, Islom Karimov nomidagi go'zal piyodalar ko'chasi orqali sayr qilib, **Bibixonim masjidiga** yo'loling. Temur buyrug'i bilan qurilgan ushbu masjid islom olamidagi eng katta masjidlardan biri bo'lib kelgan. Uning ulkan hajmi va ajoyib arxitekturasi sizni hayratda qoldiradi.



Not far from the mosque is the colourful Uzbek market known as **Siab Bazaar**, which beckons to you with the fragrance of oriental spices, sweet juicy fruits and traditional sweets. This is a great place to experience local flavours.

After the bazaar, visit the tomb of Amir Timur, the **Gur-Emir**. The architectural elements and decorations of the mausoleum make it one of the most beautiful in Central Asia. The great conqueror Tamerlane and some of his descendants rest inside.



Masjiddan uzoq bo'lmagan joyda, sharq ziravorlari, totli mevalar, an'anaviy shirinliklarning hidlari bilan sizni o'ziga jalb qiluvchi rang-barang o'zbek **Siyob bozori** joylashgan. Bu mahalliy ta'mlardan bahramand bo'lish uchun ajoyib joy.

Bozordan so'ng, Amir Temur maqbarasi – **Go'ri Amirga** tashrif buyuring. Ushbu maqbaraning me'moriy elementlari va bezaklari uni Markaziy Osiyodagi eng chiroyli yodgorliklardan biriga aylantiradi. Buyuk hukmdor Temur va uning ba'zi avlodlari shu yerda dafn etilgan.

It is impossible to come to Samarkand and not try its version of Uzbekistan's national dish, plov. Go to **Plov Centre №1**, where you can taste the most authentic Samarkand plov.

After this delicious lunch, be sure to resume your tour, because it is impossible to leave without having seen the memorial complex of **Shah-i Zinda**. This tomb ensemble on top of a hill that was once part of the ancient city of Afrosiyab impresses with the beauty of Central Asian architecture and the bright tile decorations of the tombs' façades. Here you can feel the spirit of antiquity, as some buildings date back to the 11th and 12th centuries.

After completing your tour, I suggest you return to the **Registan** to see it illuminated at night – a glorious sight.

Finish off the day in a local restaurant serving traditional Uzbek cuisine, where you can taste dishes like *manti*, *lagman*, *shurpa* and *mastava*.



This itinerary covers the main sights and will allow you to experience the culture and history of Samarkand in one day.



Samarqandga kelib, O'zbekiston milliy taomi – palovni tatib ko'rmasdan ketish mumkin emas. **"Plov Centre №1"** palov markaziga boring. Bu yerda siz eng an'anaviy Samarqand palovini tatib ko'rishingiz mumkin.

Mazali tushlikdan so'ng, sayohatingizni davom ettiravering, chunki **Shohi Zinda** yodgorlik majmuasini ko'rmasdan ketishning imkoni yo'q. Afrosiyob qadimiy shahrining bir qismi bo'lgan bu tepalikdagi maqbara majmuasi Markaziy Osiyo me'morchiligining go'zalligi va maqbaralar old tomonida joylashgan kafel bezaklari bilan taassurot qoldiradi. Bu yerda siz XI-XII- asrlarga tegishli ba'zi binolar orqali qadimiylik ruhini his qilishingiz mumkin.

Sayohatingizni tugatgach, kechasi chiroqlar ostida yoritilgan **Registon** maydoniga qaytishni maslahat beraman – bu haqiqatan ham go'zal manzara.

Kun oxirida esa an'anaviy o'zbek taomlari: *manti*, *lag'mon*, *sho'rv*a va *mastava* kabilardan bahramand bo'lish uchun mahalliy restoranlardan biriga tashrif buyuring.

Ushbu marshrut Samarqandning asosiy diqqatga sazovor joylarini qamrab oladi va bir kunda shahar madaniyati va tarixini his qilish imkonini beradi.



## VIP and CIP Lounges

Samarkand International Airport offers VIP and CIP lounges for passengers who value time and privacy and seek a high level of service.

The VIP Lounge is a comfortable, two-level private space with a separate entrance and its own car park. VIP Lounge guests are provided with a personal assistant throughout their time in the airport.

Included in the service:

- Personal assistant
- Passport and customs control in the VIP Lounge
- Individual boarding and separate transfer to the aircraft
- Bar with a variety of drinks
- Free wi-fi.

The CIP Lounge is an ideal place to wait for your flight. With over 450 square metres of space and a modern, open design, it offers a beautiful view of the terminal and a cosy, relaxing atmosphere.

Facilities and services:

- Comfortable space with modern infrastructure and green areas
- Charging stations for electronic devices
- Buffet offering a variety of hot and cold dishes and soft drinks
- Duty free shops nearby for pre-departure shopping
- Free wi-fi.

## VIP va CIP zallar

Sizning qulay sayohatingiz uchun Samarqand xalqaro aeroporti o'z vaqtini, xususiy hayotini va yuqori darajadagi xizmatni qadrlaydiganlar uchun VIP va CIP zallarini taklif etadi.

VIP zali ikki qavatli maxfiy va qulay zal bo'lib, alohida kirish joyi va o'z avtoturargohi mavjud. VIP zal mehmonlari aeroportda qolishlarining barcha bosqichlarida individual hamkorlik bilan ta'minlanadi.

Xizmatga nimalar kiradi:

- Shaxsiy yordamchi
- To'g'ridan-to'g'ri VIP-zalda pasport va bojxona nazoratidan o'tish
- Individual chiqish eshigi, samolyotga alohida o'tkazish
- Turli xil ichimliklar tanloviga ega bar
- Bepul wi-fi.

CIP zali parvozingizni qulay kutish uchun ideal maskandir. 450 kv.m dan ortiq zamonaviy ochiq maydon dizayni bilan u terminalning chiroyli manzarasini taqdim etadi va qulaylik va xotirjamlik muhitini yaratadi.

Xizmatlar va qulayliklar:

- Zamonaviy infratuzilma va dam olish va ishlash uchun shinam yashil hududlar
- Quvvat olish uchun qulay stansiyalar
- Issiq va sovuq taomlar, shuningdek, alkogolsiz ichimliklar
- Parvoz oldidan xarid qilish uchun yaqin joylashgan bojsiz do'konlar
- Bepul Wi-Fi.

CIP-zali bir joyda qulaylik, mahfiylik va shinamlikni o'ziga mujassam qilib, xalqaro va tranzit reysslarda yo'lovchilar uchun ideal sharoit yaratadi.

# SIGNIFICANT EVENTS IN 2025

## 2025-yilning Asosiy Tadbirlari

### Navruz

Navruz is one of Uzbekistan's most important national events. The holiday falls on 21 March, the day of the vernal equinox. Festivities are usually held from 19 to 23 March, when sumalyak is prepared and many musical and dance groups perform in public areas.

### Navro'z

Navro'z o'zbek milliy analarining eng muhim bayramlaridan biri hisoblanadi. Ushbu bayram 21-mart kuni, bahorgi teng kunlikda (kun va tunning vaqti teng bo'ladi) nishonlanadi. 19-martdan 23-martgacha respublika bo'ylab bayram tadbirlari o'tkazilib, mehmonlar uchun sumalak tayyorlanadi, musiqa va raqs guruhlarini namoyon etishadi.



[www.uzbekistan.travel](http://www.uzbekistan.travel)



### Boysun Bahori

**To'y kuni.** To'y tonggi palov bilan boshlanadi. Palovni kuyov va kelin tomonlari birgalikda katta qozonlarda pishirishadi va mehmonlarga tarqatishadi. Keyin kuyov do'stlari bilan kelin tomonga musiqachilar jo'rligida boradi. Kelin chimildiq ichiga kiritiladi. Kuyov oltin kashtali to'n kiygan holda chimildiqqa kiradi. Bu yerda yoshi kattalar duo o'qishadi, yomon ruhlarni quvish uchun shamlar uch marta aylantiriladi. Keyin asal olib kelinadi – kuyov dastlab asalni totib, keyin kelinning qo'liga beradi, bu ularning hayoti shirin bo'lishi uchun qilinadi. Shu bilan birga, kelin va kuyov bir-biriga hali hech kim qarab ko'rmagan oynadan qaraydi. Kuyov kelinni ota uyidan olib chiqadi, kattalar ularni yangi uyga kuzatib qo'yishadi.

Nikoh marosimi ko'pincha tarixiy masjidlar yoki imomlar bor uyda o'tkaziladi. Shundan so'ng, yoshlar katta ziyofatga taklif qilinadi.

Samarqanddagi to'ylar o'zining turfa xususiyatlari va ulug'vorligi bilan ajralib turadi. Ushbu tadbir bir necha kun davom etishi mumkin va barcha qarindoshlar, do'stlar hamda qo'shnilar bir joyga yig'iladi. Mehmonlarga an'anaviy o'zbek taomlari – Samarqand palovi, *somsalar* va shirinliklar tortiq qilinadi. Milliy o'zbek cholg'u asboblari jo'rligida professional raqqosalar xalq raqslari, jumladan, *lazgi* va *Andijon polkasini* ijro etadilar.

**To'ydan so'ng.** Bayramlar yakunlangach, kelin rasmiy ravishda kuyovning uyiga ko'chib o'tadi. Bu yerda uni raqslar va shirinliklar bilan kutib olishadi. Ertasiga yuz ochar marosimi o'tkaziladi, bunda kelin kuyovning barcha qarindoshlari bilan salomlashadi. Kelin yuzini kashta tikilgan ro'mol bilan to'sib turadi va uni qisqa muddatga pastga tushiradi, faqat qo'lini harakatlantirib salom beradi.

O'zbek to'ylari ko'p kunlik tadbirlardan iborat bo'lib, ular ko'plab urf-odatlar, an'analar va madaniy merosga boydir. Bu nafaqat ikki oilani birlashtiradi, balki avlodlar o'rtasida kuchli rishtalar yaratib, o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlarini davom ettiradi.

# Zumrad and Qimmat

ZUMRAD VA  
QIMMAT

An Uzbek fairy tale

O'zbek xalq ertagi

Paintings by DIYORA GULYAMOVA

Once upon a time there was a girl named Zumrad. She lived with her old father, her stepmother and her stepsister Qimmat, who was arrogant and spoiled. The stepmother didn't like Zumrad, so she forced her to clean the house from morning to evening, while Qimmat woke up late and did nothing to help.

Despite the stepmother's meanness, Zumrad was a playful girl who liked to play tricks on everyone. She would wake up early and tease the rooster by crowing before him, and the rooster would retaliate by pecking at her freshly baked bread.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, Zumrad ismli bir qiz yashagan ekan. U qarib qolgan otasi, o'gay onasi va o'gay singlisi Qimmat bilan birgayashar ekan. Qimmat o'zini hammadan ustun qo'yadigan injiq qiz edi. O'gay onasi Zumradni yoqtirmasdi, shuning uchun uni tong otgandan to kechgacha ishlashga majbur qilardi. Bu orada Qimmat kech uyg'onib, hech qanday ishga yordam bermasdi.

Onasining yomonligiga qaramay, Zumrad juda sho'x va o'ynoqi, doim boshqalarga hazil qilishni yaxshi ko'radigan qiz edi. U erta tongda turib, xo'rozdan avval qichqirib uni bezovta qilar edi, xo'roz esa bunga javoban uning yangi pishirgan nonini cho'qib undan o'ch olardi.



Zumrad

One day she hid her father's kovush (slippers) in the sleeves of his chopon (coat). While Zummat laughed, he secretly plugged up the spout of the teapot with a piece of bread, then asked her to pour some tea. But sensing her father's trick, she used another teapot. When the stepmother woke up, she wanted tea for breakfast, so she reached for the teapot – the wrong one. The bread wedged in the spout had already become soft, so when she tilted the pot thinking there was hardly any tea left, it suddenly sloshed out and drenched her nightgown.

"This is Zumrad's doing," she cried. "I've had enough of that girl. Get her out of here!"

So the old man, who was a woodcutter, took Zumrad into the forest. They walked until they reached a large elm tree. He told her to wait there while he gathered firewood. While waiting, Zumrad thought of another trick she could play on her father – she would hide behind a bush and jump out and frighten him when he returned. But she had to wait for so long that she eventually fell asleep.

When her father returned he couldn't see her, so he began to shout her name. Then he headed home, hoping she might have gone back by herself. When Zumrad awoke, it was almost dark and the forest rustled with eerie sounds. She was scared and wished her dad would come. She started walking and soon came across a meadow, where she met an old lady who was picking berries. She turned around when Zumrad greeted her and said, "Hello, girlie. What are you doing here?"

Zumrad told her everything; the granny listened attentively and shared some of her berries. At the end of the story, she took Zumrad home with her and told her she could stay until her father came. She gave her picture books and dolls to play with, and hugged her often. Zumrad settled in the old lady's home and helped her with the chores. She liked her life at the



Qimmat

Bir kuni Zumrad otasining kovushlarini choponining yenglariga yashirib qo'ydi. Zumrad kulib turganida, otasi ham fursatdan foydalanib choynakning jo'mragini bir bo'lak non bilan yopib qo'ydi va Zumrad choy quyishini so'radi. Lekin otasining hiylasini sezgan Zumrad boshqa choynakdan choy quydi. O'gay onasi uyg'ongach, nonushta uchun choy ichmoqchi bo'ldi, u noto'g'ri choynakni olib qo'ygan ekan, (bu paytda jo'mrakdagi non yumshab qolgan edi) choynakda ozgina choy qolgan deb o'ylab egib yuborganida, choy birdan to'kilib uning tungi kiyimlarini ho'l qildi.

"Bu Zumradning ishi!" deb baqirdi u. "Men bu qizdan charchadim. Uni bu yerda ko'rishni istamayman!"

Zumradning otasi yog'och kesish bilan shug'ullanar edi va u Zumradni o'rmonga olib bordi. Ular katta bir chinor daraxtiga yetguncha yurishdi, otasi uni shu yerda kutishini aytib, o'zi o'tin terishga ketdi. Kutib o'tirgan Zumrad otasiga yana bir hazil qilishni o'yladi — buta ortiga yashirib olib, otasi qaytib kelganda uni cho'chitib yubormoqchi bo'ldi. Lekin u shunchalik uzoq kutganidan oxir-oqibat uxlab qoldi.

O'tgan vaqt ichida chol qaytib kelib Zumradni topa olmadi va uni chaqira boshladi, qizini topolmay, balki o'zi qaytib ketgandir deb umid qilib uyga yo'l oldi. Zumrad uyg'onganida deyarli qorong'i tushib, o'rmonda g'alati shovqinlar eshitalardi. U qo'rqdi va otasini eslab, uni kutib olish uchun yura boshladi va bir ochiq maydonchaga chiqib qoldi, u yerda meva terib yurgan bir kampirni uchratdi. Zumrad unga salom berganida, unga o'girilib: "Salom, qizcha. Bu yerda nima qilyapsan?" dedi.

Zumrad bo'lgan voqeani aytib berdi, kampir uning hikoyasini diqqat bilan tinglab, mevalaridan bir qismini berdi. So'ngra uni o'z uyiga olib bordi va otasi kelgunicha qolishi mumkinligini aytdi. U o'ynash uchun Zumradga rasmiy kitoblar va o'yinchoqlar berdi, bag'riga bosib erkaladi. Zumrad kampirning uyida yashab, uning ishlariga yordam berib, shu qadar baxtli ediki, oradan biroz vaqt o'tib o'z uyini deyarli unutdi. Lekin bir kuni, xo'rozning ovozi eshitib, yig'lay boshladi: "Men uyimni sog'indim, otamni yana bir bor ko'rishni juda-juda xohlayman" dedi kampirga.

granny's so much that after a while she could barely remember her own home. But one day, she heard a rooster crowing and started weeping. "I miss home," she told the granny. "And I wish I could see my father again."

The granny suggested that she try searching for her father, so she gave Zumrad some provisions and warm clothes for the journey. "Now go to the attic," she said. "You'll find two boxes there – one red, the other white. Take the white one. Open it only after you reach home."

Zumrad did as she had been told and embraced the granny warmly before leaving. She wandered in the forest for a long time until she found the big elm. She sat there, unsure of where to go next, until she heard a rooster crowing in the distance. It was her rooster – she couldn't mistake it, as she had played with it every day. She followed the rooster's crowing and finally reached home. Her father was over the moon to see her again, and Zumrad laughed and cried with him.

When Zumrad opened the white box, everyone was amazed, for it was full of precious things – velvet dresses, jewellery, embroidered handkerchiefs and silk cloth. The stepmother wasn't happy that Zumrad had returned, and Qimmat, who was green with envy, demanded some of the gifts. So the stepmother took the old man aside and hissed, "Take my daughter into the woods and leave her there, just like you left Zumrad."

And so Qimmat, too, was left alone in the forest, and she, too, ran into the old lady. The granny greeted her kindly, but Qimmat didn't know what to say because her mother hadn't taught her to speak politely. The old woman brought her home, but she didn't cuddle her and didn't give her any toys. She asked Qimmat for help – could she bring some firewood from the shed to start the fire?

Qimmat, who had never done anything at home except sit around and eat, replied rudely: "Why should I bring the firewood? Fetch it yourself." She sat morosely at the table, waiting to be fed. The next morning, after the old lady had patiently served her breakfast, Qimmat whined: "I want to go home. I don't like it here. But I want some gifts before I go."

"There's a red box for you in the attic. Take it," said the old lady. "But don't open it until you're back home."

Before saying farewell, the granny tried to give her some advice, but Qimmat did not listen and left without saying good-bye. Her mother was glad to see her return. "Did you get any gifts?" she asked greedily. Qimmat showed her the red box. Before anyone else could see it, the stepmother locked the door and told Qimmat to open the box.

But there were no gifts inside! Two dragons jumped out of the box and devoured them. Hearing their terrified cries, the neighbours broke down the door, but they didn't find anyone. Everything was gone – the box, the dragons, Qimmat and the stepmother.

As for Zumrad and her old father, they lived happily together for many years.

Kampir Zumradga otasini izlashni maslahat berdi. Unga yo'lga tushish uchun oziq-ovqat va issiq kiyimlar berdi. "Endi, tomga chiq" dedi kampir. "U yerda ikkita sandiqni topasan – biri qizil, ikkinchisi oq. Oq sandiqni ol. Uni faqat uyga yetib borganingdan keyin ochasan"

Zumrad kampirning aytganlarini bajarib, jo'nashdan oldin uni mehr bilan quchoqladi. U o'rmonda uzoq vaqt yurib, oxir-oqibat katta chinor daraxtini topdi. Daraxt tagida o'tirib, qayerga borishni bilmay o'ylanib qoldi, shu payt uzoqdan xo'rozning qichqirgan ovozi eshitdi. Bu o'zining xo'rozi edi – uni adashtirib bo'lmasdi, chunki har kuni u bilan birga o'ynardi. Xo'roz qichqirig'i tomon yurib, uyiga yetib bordi. Otasi uni qayta ko'rib, juda xursand bo'ldi, Zumrad esa otasi bilan bir kulib, bir quvonchdan yig'lab ko'rishdi.

Zumrad oq sandiqni ochganida, hamma hayratda qoldi, chunki uning ichida qimmatbaho narsalar bor edi – atlas liboslar, zargarlik buyumlari, naqshinkor ro'mollar va ipak matolar... O'gayona Zumradning qaytganidan xursand bo'lmadi, Qimmat esa ich-ichidan yonib sovg'alardan ulush talab qila boshladi. Shunda o'gayona cholni chetga olib, "Qizimni ham o'rmonga olib borib, xuddi Zumradni qoldirib kelganingdek tashlab kel" dedi.

Shunday qilib, Qimmat ham o'rmonda yolg'iz qoldi va u ham kampirni uchratdi. Kampir uni samimiylik bilan kutib oldi, lekin Qimmat nima deyishni bilmasdi, chunki onasi unga hurmat bilan gaplashishni o'rgatmagan edi. Kampir uni uyiga olib bordi, lekin uni quchoqlamadi va unga o'yinchoqlar bermadi. Birozdan so'ng Qimmatdan yordam so'radi – "Olov yoqish uchun ombordan bir oz o'tin olib kelasanmi?"

Qimmat esa uyda hech qachon hech narsa qilmagan faqat o'tirib ovqat yeyishga o'rgangan qiz edi va qo'pol ohangda: "Nega men olib kelishim kerak? O'zingiz olib keling" dedi va jimgina stolda o'tirib ovqat keltirishlarini kutdi. Ertasi kuni kampir unga sabr bilan nonushta qilib berganidan so'ng, Qimmat yig'lab: "Uyga ketishni xohlayman. Bu yer menga yoqmayapti. Lekin uyga qaytishdan oldin menga sovg'a berishingiz kerak" dedi.

Kampir unga: "Yerto'lada sen uchun bir qizil sandiq bor, uni ol, lekin uyga borganingcha ochma" dedi.

Kampir unga bir maslahat bermoqchi bo'ldi, ammo Qimmat uni eshitmadi va u bilan yaxshi xayrlashmasdan ketdi. Onasi uni ko'rib, ochko'zlik bilan: "Sovg'alarni oldingmi?" deb so'radi. Qimmat qizil sandiqni ko'rsatdi. Hech kim ko'rmasdan oldin o'gayona eshikni ichkaridan yopdi va qiziga: "Tezroq och!" dedi.

Ammo sandiq ichida hech qanday sovg'alar yo'q edi! Ikkita ajdarho sandiqdan chiqib, ularni yeb qo'ydi. Ularning dahshatli qichqirig'ini eshitgan qo'shnilar eshikni buzib kirishdi, lekin hech kimni topa olishmadi. Ularning barchasi – sandiq, ajdaholar, Qimmat va onasi g'oyib bo'lishgan edi.

Zumrad va uning otasi esa uzoq yillar davomida baxtli hayot kechirishdi.



Help Zumrad find her way home!



**ZUMRADGA UYGA YO'L TOPISHDA YORDAM BER!**

# Zeekr 007: The future has arrived

*We drove the familiar route from Tashkent to Samarkand in the new Zeekr 007.*

Text by Oleg Ivanov

## Space-age appearance

The first impression of the Zeekr 007 is that of an ultra-modern, futuristic vehicle. Its brightest (literally) design element is the sleek Stargate illumination panel that complements conventional headlights conventional headlights. Consisting of more than one thousand LEDs, it welcomes you to the car park with a lit-up, written greeting. The text can even be animated to resemble a scrolling ticker symbol.

The Zeekr 007 has no door handles. Instead, you press a button to open the door. And the silhouette of the body will leave no one indifferent, thanks in large part to the work of 007's chief architect, Stefan Sielaff, a designer with experience at Audi and Bentley.



## Kelajak yetib keldi

*Biz Zeekr 007 elektromobilini Toshkentdan Samarqandgacha bo'lgan tanish yo'nalishda sinovdan o'tkazdik.*

## Kosmik davr dizayni

Zeekr 007 bir qarashda o'ta-zamonaviy va futuristik avtomobil sifatida taassurot qoldiradi. Uning eng yorqin dizayn elementi – an'anaviy faralarga qo'shimcha sifatida yaratilgan zamonaviy Stargate yoritish panelidir. Mingdan ortiq LEDlardan tashkil topgan ushbu panel sizni yozuvlardan iborat bo'lgan animatsiya bilan qarshi oladi.

Zeekr 007 da eshik tutqichlari mavjud emas. Buning o'rniga eshikni ochish tugmasini bosishni o'zi kifoya. Kuzov silueti esa hech kimni befarq qoldirmaydi, bunga 007 bosh arxitektori, Audi va Bentley kompaniyalarida tajribaga ega dizayner Stefan Sielaff asosiy sababchi hisoblanadi.

## Futuristic technology

When you're driving, you feel like you're in a science fiction film: a virtual display projects the most important information directly onto the windscreen, and the rest is shown on large displays with cool animations. The Zeekr also offers a host of advanced features: cameras and sensors for safety, adaptive cruise control, and a system that can bring the car to an emergency stop in case of unforeseen danger. The electric car accelerates to 100 kilometres per hour in just three seconds, which is the motoring equivalent of a fighter jet taking off from the deck of an aircraft carrier. But in almost complete silence! Control is also top-notch: the car can execute all the driver's manoeuvres accurately without any hint of jerkiness.

## Futuristik texnologiyalar

Zeekr 007ni haydaganingizda o'zingizni ilmiy-fantastik filmga tushib qolgandek his qilasiz: muhim ma'lumotlar old oynaga virtual displey orqali uzatilib turadi, qolganlari esa animatsiyalar bilan katta ekranlarda ko'rsatiladi. Zeekr shuningdek, ko'plab ilg'or funksiyalarni taqdim etadi: xavfsizlik kameralari va datchiklari, adaptiv kruiz nazorati va kutilmagan xavftug'ilganda avtomobilni favqulodda to'xtata oladigan tizim. Ushbu elektromobil soatiga 100 kilometr talab etiladigan tezlikni bor-yo'g'i uch soniyada bosib o'tadi – deyarli samolyot uchishiga teng, ammo shovqinsiz! Mashina boshqaruvi ham yuqori darajada: barcha harakatlar to'g'ri va silkinishsiz amalga oshiriladi.

### All the best is hidden inside

The interior of the car is premium class: seats with anatomical support, panoramic roof from bonnet to boot, and an audio system with 21 speakers. Climate control and other systems are operated via touch screen. The only let-down is the absence of familiar physical controls – sometimes you just want to turn knobs and push buttons, not just tap a screen!

### Power reserve and charging

The Zeekr 007 is offered with a battery of up to 100 kWh, with a range of up to 870 kilometres on a single charge, but this depends on the equipment. On our trip to Samarkand, the car easily covered the round-trip distance. And we were able to fully charge the battery at an 80 kW station while having lunch.

*Recommended price for Uzbekistan: 499-686 million sum.*

### The car of tomorrow, today

The Zeekr 007 is not just a car; it is an embodiment of the future. It combines power, comfort and innovation to surprise even the most sceptical motorists.

Minuses? It's expensive, and one does not even want to imagine what body repairs might cost. But everything has its price, and luxury is never cheap. In summary, we are impressed by its novelty!



### Barcha qulayliklar ichida yashiringan

Avtomobilning ichki qismini yuqori darajadagi qulayliklar bilan ta'minlangan: anatomik qulaylikni ta'minlovchi o'rindiqlar, boshdan-oxirgacha panoramali tom qismi, va 21 karnayli audio tizim mavjud. Iqlim nazorati va boshqa funksiyalar sensorli ekran orqali boshqariladi. Yagona kamchilik - bu tanish jismoniy boshqaruv vositalarining yo'qligi - ba'zida siz ekranga tegishdan ko'ra tugmalarni bosishni istab qolasiz!

### Batareya va quvvat olish

Zeekr 007 100 kWh/soat sig'imli batareyaga ega bo'lib, bir marta quvvatlanishda 870 kilometr masofani bosib o'tish imkonini beradi (jihozlanishiga qarab). Bizning sayohatimizda Toshkent-Samarqand yo'nalishida avtomobil bemalol ikki tomonlama yo'lni bosib o'tdi. Tushlik paytida esa 80 kW stansiyasida to'liq quvvatini to'ldirib oldik.

### Ertangi va bugungi kunning mashinasi

Zeekr 007 oddiy avtomobil emas, balki kelajak ramzidir. U quvvat, qulaylik va innovatsiyalarni o'zida uyg'unlashtirgan holda hatto eng tanqidchi haydovchilarni ham hayratga soladi.

Kamchiliklari? Qimmat, va ta'mirlash narxini tasavvur qilish qiyinligida. Ammo hamma narsaning o'z bahosi bo'ladi va hashamat hech qachon arzon bo'lmaydi. Xulosa qilib aytganda, biz Zeekr 007 avtomobilining yangiligi va mukammalligidan qoyil qoldik!

*O'zbekiston uchun tavsiya etilgan narx: 499-686 million so'm.*



## Ask a Pilot

### Pilot bilan suhbat

*Konstantin Goryushkin is the captain of an Airbus A330 aircraft. We asked him a few questions about his work in the sky.*

#### **How did you become a pilot?**

Several people in my family have had a strong connection with aviation. My dad and uncle were civil aviation pilots. My sisters are flight attendants. When I was a child, I'd see my father put on his uniform and go to work, and he'd return with souvenirs from other countries. Ever since then, my dream was to become a pilot, and it came true! I've been flying for 17 years now.

*Konstantin Goryushkin — Airbus A330 samolyotining kapitani. Biz ularga parvozlarning davomidagi ish jarayonlari haqida bir qancha savollar berdik.*

#### **Qanday qilib pilot bo'lgansiz?**

Oilamizda hayotini aviatsiya bilan bog'lagan bir nechta inson bor. Otam va amakim fuqarolik aviatsiyasi pilotlari bo'lishgan. Singillarim esa bort kuzatuvchisi sifatida ish yuritishadi. Bolaligimda otam formasini kiyib ishga ketishini va bizga boshqa davlatlardan esdalik sovg'alarini olib kelishini ko'p kuzatardim. Shundan beri mening orzuyim pilot bo'lish edi va bu orzuyim ro'yobga chiqdi! Hozirda 17 yildan buyon shu sohadaman.

#### **How does one become a pilot in Uzbekistan?**

The first and most important thing is to be in good health. Unfortunately, not all applicants pass the medical examination and are declared 'completely healthy'.

The second factor is knowledge. Future pilots should do well in physics and mathematics, and study foreign languages. The main language of aviation is English – the most important documents are written in English, and we regularly take exams to confirm our level. Besides, all air traffic controllers communicate in English, so you cannot fly without knowing it well.

Flying requires continual training as well as good physical shape and a healthy lifestyle. Otherwise, say goodbye to the dream of flying!

#### **O'zbekistonda qanday qilib pilot bo'lish mumkin?**

Birinchi va eng muhim narsa — mukammal salomatlikka ega bo'lish. Afsuski, hamma arizachilar ham tibbiy ko'rikdan o'tib, "to'liq sog'lom" deb topilmaydi.

Ikkinchi omil — bilim. Kelajakda pilot bo'lishni maqsad qilganlar fizika va matematika fanlarida yaxshi bo'lishi, xorijiy tillarni o'rganishlari kerak. Aviatsiyaning asosiy tili ingliz tili hisoblanadi — eng muhim hujjatlar ingliz tilida yozilgan va biz muntazam ravishda ingliz tilidagi darajamizni tasdiqlash uchun imtihonlar topshiramiz. Bundan tashqari, barcha havo harakatini boshqaruvchi kishilar ingliz tilida muloqot qilishadi, shuning uchun bu tilni yaxshi bilmasdan bu sohada bo'lish mumkin emas.

Parvozlarning doimiy mashg'ulot, yaxshi jismoniy tayyorgarlik, sog'lom turmush tarzini talab qiladi. Aks holda, uchish orzusini unuting!



#### **Which technologies and modern aircraft systems impress you the most?**

Modern aeroplanes are very safe. The systems are constantly improving, becoming more complex and increasingly computerised. Innovative materials are used in the construction of the aircraft. All of this makes the pilot's job easier, increases passenger comfort, and makes tickets more affordable due to more fuel-efficient engines and lighter materials.

Our Airbus aircraft are equipped with multi-stage safety systems that help pilots in case of an emergency. More importantly, they prevent such situations from occurring in the first place.

#### **Qaysi texnologiyalar va zamonaviy samolyot tizimlari sizni eng ko'p hayratda qoldiradi?**

Zamonaviy samolyotlar juda xavfsiz bo'lib, ularning tizimlari doimiy ravishda takomillashib boradi, murakkablashadi va kompyuterlashtiriladi. Samolyotlarni qurishda innovatsion materiallardan foydalaniladi. Bularning barchasi pilotning ishini osonlashtiradi, yo'lovchilarning qulayligini oshiradi va yoqilg'i tejavchi dvigatellar va yengil materiallar tufayli chipta narxlarini arzonlashtiradi.

Bizning Airbus samolyotlarimizda pilotlarga favqulodda holatlarda yordam beradigan ko'plab xavfsizlik tizimlari mavjud. Eng muhimi, ular bunday holatlarning oldini olishga yordam beradi.





#### **How do you feel when taking off and landing an aircraft?**

Take-off and landing are the most difficult phases of a flight. They require maximum concentration, both physically and mentally. Studies have shown that a pilot's heart rate during take-off and landing corresponds to that of a person who's running. We don't notice it because most take-offs and landings are unremarkable. But no two landings are the same – weather, wind, and aerodromes are different – so we have to stay alert.

#### **Are there any secrets that help you stay focused during a flight?**

The quality of pre-flight rest has a big impact on focus. Aviation laws set strict rules and limits on flight times and minimum crew rest times to prevent fatigue. Before each flight, we are obliged to rest for at least 12 hours. And this is strictly controlled. A sleepy pilot will simply not be allowed on a flight.

#### **How do you cope with the frequent change in time zones?**

Over time, this becomes another skill required by the job: to sleep regardless of whether it is night or day outside. However, the most important thing is the ability to recover quickly after long flights. A healthy lifestyle, proper nutrition and plenty of exercise (but without overdoing it) help a lot.

#### **How are meals served to pilots while on board the aircraft?**

There are a few nuances regarding meals for pilots. Firstly, the captain and co-pilot always eat different meals: if, for example, one chooses chicken with mashed potatoes, the other must take the fish with rice. If there is an even minimal possibility of food poisoning, at least one pilot will be OK! However, the catering for Air Samarkand has never let us down so far – everything is fresh and tasty.

One more thing: we have to take turns eating. It is very important to remain in full control of the flight, without distractions. And to drink plenty of water to maintain energy and concentration.

#### **Can you hear the passengers applauding when the aircraft lands?**

Usually not. The cockpit is separated from the cabin by a partition, and during landing we have aviation headsets on. And in any case we listen primarily to the sounds of the aircraft.

On the other hand, at the post-flight briefing the flight attendants always tell us whether passengers were satisfied with the flight and the landing, and they pass on any wishes, comments or thanks expressed by the passengers. We are always very pleased with such messages!

#### **What tips do you have for passengers to make air travel more comfortable?**

Travel in comfortable clothes that you won't feel hot or cold in: the cabin temperature is usually around 22 degrees Celsius. Put everything you might need during the flight in your hand luggage or a small bag, including medication.

When I fly as a passenger, I always take active noise-cancelling headphones with me. The ability to shut out noise and immerse yourself in pleasant music allows you to relax and reboot.

Before and during the flight, it is better not to drink alcohol, but rather drink plenty of plain water. Alcohol dries the body, so on arrival you'll feel tired and dehydrated.

And the main thing is to be in a good mood, then any flight will seem comfortable and pleasant!

#### **Samolyotni havoga ko'tarish va qo'ndirishda nimalarni his qilasiz?**

Havoga ko'tarish va qo'ndirish — parvozning eng murakkab bosqichlari hisoblanadi. Ular ham jismoniy, ham aqliy maksimal diqqatni talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pilotning ko'tarilish va qo'nish paytidagi yurak urish tezligi yugurayotgan odamning yurak urish tezligiga teng. Biz buni sezmaymiz, chunki aksariyat ko'tarilish va qo'nishlar unchalik diqqatga sazovor bo'lmaydi. Lekin har bir qo'nish o'ziga xos bo'ladi, chunki ob-havo, shamol va aerodromlar har xil, shuning uchun biz doim hushyor bo'lishimiz kerak.

#### **Parvoz davomida diqqatni jamlashga yordam beradigan sirlaringiz bormi?**

Parvoz oldidan to'liq dam olish diqqatni jamlash uchun asosiy yo'ldir. Aviatsiya qonunlari parvoz vaqtlari va ekipaj dam olish vaqtlariga qat'iy cheklovlar qo'yadi, bu esa charchashning oldini olishga yordam beradi. Har bir parvozdan oldin kamida 12 soat dam olishimiz shart. Va bu qat'iy nazorat qilinadi. Uyquga to'ymagan pilotni parvozga chiqarish mumkin emas.

#### **Vaqt mintaqalarining o'zgarishini qanday boshqarasiz?**

Vaqt o'tishi bilan bu ishda zarur bo'lgan yana bir mahoratga aylanadi: tashqarida tun yoki kun bo'lishidan qat'i nazar, uxlashga o'rganish kerak. Biroq, eng muhimi uzoq parvozlardan so'ng tezda tiklanish qobiliyati. Sog'lom turmush tarzi, to'g'ri ovqatlanish va yetarli miqdorda jismoniy mashqlar (lekin haddan tashqari ko'pemas) bu borada katta yordam beradi.

#### **Samolyot parvozi davomida pilotlarga qanday ovqatlar beriladi?**

Pilotlar uchun ovqatlanish bilan bog'liq ba'zi xususiyatlar mavjud. Birinchi navbatda, kapitan va ikkinchi pilot har doim har xil ovqatlarni tanlashadi: agar biri tovuq va kartoshka pyuresini tanlasa, boshqasi baliq va guruchni tanlashi kerak. Agar oziq-ovqat bilan kasallanish ehtimoli bo'lsa, kamida bir pilot sog'lom bo'ladi! Ammo Air Samarkand kompaniyasining taomlari bizni hech qachon xafa qilmagan — hammasi yangi va mazali.

Bundan tashqari, biz ovqatlanishda navbatma-navbat turishimiz kerak. Parvoz davomida to'liq boshqaruvni saqlash juda muhim, bu uchun chalg'imaslik talab etiladi. Shuningdek, energiya va diqqatni saqlash uchun ko'p miqdorda suv ichish lozim.

#### **Samolyot qo'nishi vaqtida yo'lovchilarning olqishlayotganini eshitasizmi?**

Odatda eshitmaymiz. Ekipaj kabinadan ajratilgan bo'lib, qo'nish vaqtida bizda aviatsiya quloqchinlari bo'ladi. Bunga qaramay, biz avvalo samolyot ovozi eshitishga e'tibor beramiz. Lekin, parvozdan keyin bort kuzatuvchilari har doim yo'lovchilarning qo'nishdan qoniqqanliklarini bizga aytib berishadi. Ular tomonidan bildirilgan fikrlar, izohlar yoki rahmatlarni yetkazib turishadi. Bunday xabarlar, albatta, bizni doimo xursand qiladi!

#### **Yo'lovchilarga parvozlari yanada qulayroq qilish uchun qanday maslahatlar berasiz?**

Qulay kiyimda sayohat qilishni tavsiya qilaman, bu kiyim sizni na issiq, na sovuq his qildirmasligi kerak: kabina harorati odatda 22 Selsiy darajada bo'ladi. Parvoz davomida kerak bo'lishi mumkin bo'lgan barcha narsalarni qo'lingizdagi bagaj yoki kichik sumkada saqlang, jumladan dori-darmonlarni ham. Men o'zim yo'lovchi bo'lganimda, har doim shovqindan saqlovchi quloqchinlar olib yuraman. Shovqinni to'liq kamaytirish va yoqimli musiqa tinglash imkoniyati sizni dam olishga va tiklanishingizga yordam beradi.

Parvozdan oldin yoki parvoz davomida alkohol ichmaslik, balki ko'p miqdorda oddiy suv ichishni afzal ko'ring. Alkol tanani quritadi, natijada, o'zingizni charchagan va holsiz his qilasiz.

Asosiysi, yaxshi kayfiyatda bo'lish, shunda har qanday parvoz qulay va yoqimli bo'ladi!



# Flights Map

## Parvoz xaritasi



- - - - - Air Samarkand flights  
Air Samarkand parvozlari
- - - - - Air Samarkand flights planned for the first half of 2025  
Air Samarkand parvozlari 2025-yilning birinchi yarmiga rejalashtirilgan
- - - - - Flights operated from Samarkand by Air Samarkand and other airlines  
Air Samarkand va boshqa aviakompaniyalar tomonidan Samarkanddan amalga oshiriladigan parvozlari
- - - - - Flights from Samarkand by other airlines  
Boshqa aviakompaniyalar tomonidan Samarkanddan amalga oshiriladigan parvozlari

### Our Fleet

#### Bizning Flotimiz



**Airbus A330-300**  
36 Premium + 277 Economy  
Max. distance: 11 300 km  
Cruise speed: 871 km/h



**Airbus A321**  
12 Premium + 182 Economy  
Max. distance: 6 100 km  
Cruise speed: 833 km/h



**Airbus A321neo**  
211 Economy  
Max. distance: 7 400 km  
Cruise speed: 833 km/h



COMOROS  
MAYOTTE (FRANCE)



## Rules of behaviour on board Air Samarkand flights

### “Air Samarkand” samolyotlarida yo‘lovchilar uchun xulq-atvor qoidalari

The rules of passenger behaviour on board an aircraft were established by the Aviation Administration of the Republic of Uzbekistan and registered by the Ministry of Justice on 29 January 2013 (registration no. 2416).

Xulq-atvor qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Fuqaro aviatsiyasi ma‘muriyati tomonidan tasdiqlangan va 2013-yil 29-yanvarda Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan (ro‘yxat raqami 2416).

#### A passenger on board an aircraft is required to:

- ◆ Comply with the orders of the aircraft captain (or of the crew members made on behalf of the aircraft captain) so that the flight can be conducted safely and in an orderly manner, ensuring the safety of passengers and their property, and without interfering with the rendering of all services required for the fulfilment of the contract of carriage by air;
- ◆ Occupy a seat in the cabin in accordance with the boarding pass issued to them, and if necessary to ensure flight safety in accordance with the instructions of a member of the aircraft crew;
- ◆ Place hand baggage in specially designated places;
- ◆ Fasten their seat belt when the ‘Fasten your seat belts’ sign is switched on and keep it fastened until the sign is switched off.

#### Yo‘lovchilarning bortdagi majburiyatlari:

- ◆ Parvoz xavfsiz va tartibli, yo‘lovchilar va ularning mol-mulki xavfsizligini ta‘minlaydigan, shuningdek, havo kemasi bilan bog‘liq harakatlarga xalaqit bermagan holda va havo tashish shartnomasini bajarish uchun zarur bo‘lgan barcha xizmatlarni taqdim etilishi uchun havo kemasi kapitanining (yoki havo kemasi kapitani nomidan berilgan ekipaj a‘zolarining) ko‘rsatmalariga amal qilish;
- ◆ Chiptadagi joyga o‘tirish va zarurat tug‘ilganda ekipaj a‘zolari ko‘rsatmalariga muvofiq joylashish;
- ◆ Qo‘l yuklarini maxsus belgilangan joylarga joylashtirish;
- ◆ “Kamarni taqib oling” belgisi yoqilgan paytda xavfsizlik kamarini taqib olish va bu belgi o‘chmaguncha yechmaslik.

#### It is prohibited for a passenger on board an aircraft to:

- ◆ Consume narcotic substances, including nasvay (chewing tobacco), or smoke tobacco products, including electronic cigarettes;
- ◆ Consume alcoholic beverages in excess of the established norm offered by the carrier, as well as alcoholic beverages purchased in duty-free shops;
- ◆ Enter the cockpit;
- ◆ Hinder crew members in the performance of their duties or interfere with their actions;
- ◆ Use electronic devices and means of communication during taxiing, take-off and landing;
- ◆ Remove or damage aircraft property (blankets, cushions, dishes, cutlery, electronic devices, life jackets, etc.);
- ◆ Disturb public order;
- ◆ Use rescue equipment without appropriate instructions from crew members;
- ◆ Change seats without permission or instruction from a crew member.

An air carriage contract concluded with a passenger may be terminated by the carrier at any point on the route of carriage in cases where the passenger violates the requirements of the Rules of Conduct on board the aircraft, creating a threat to flight safety or the life or health of persons and their property.

#### Passenger's rights:

- ◆ A passenger has the right to demand from the crew members of the aircraft to provide the services specified in the contract of carriage by air;
- ◆ A passenger has the right to request that crew members intervene against any other passenger whose behaviour violates public order, unnecessarily disturbs them or other persons, threatens their honour, dignity, property, health or life, as well as to appeal against such actions by crew members.

Agar yo‘lovchi havo kemasi bortida Xulq-atvor talablarini buzsa, parvozlarning xavfsizligi, inson salomatligi va yo‘lovchilarning mulkiga xavf tug‘dirsa, yo‘lovchi bilan tuzilgan havo tashish shartnomasi tashuvchi tomonidan bekor qilinishi mumkin.

#### Yo‘lovchilarning huquqlari:

- ◆ Havo transporti shartnomasida ko‘zda tutilgan xizmatlarni talab qilish;
- ◆ Jamoat tartibini buzayotgan yo‘lovchilar ustidan shikoyat qilish yoki ekipajning aralashuvini talab qilish.

#### Bortda quyidagi holatlar taqiqlanadi:

- ◆ Narkotik moddalar, jumladan nasvay iste‘mol qilish yoki tamaki mahsulotlari, elektron sigaretalar chekish;
- ◆ Aviakompaniya tomonidan belgilangan me‘yordan ortiq spirtli ichimlik iste‘mol qilish yoki duty-free do‘konlaridan sotib olingan ichimliklarni ichish;
- ◆ Pilot kabinasiga kirish;
- ◆ Ekipaj a‘zolariga o‘z vazifalarini bajarishda xalaqit berish yoki ularning harakatlariga aralashish;
- ◆ Ko‘tarilish va qo‘nish vaqtida elektron qurilma va aloqa vositalaridan foydalanish;
- ◆ Havo kemasi mulkini yo‘qotish yoki (adyol, yostiq, idish-tovoq, xavfsizlik jiletleri va boshqalarni) shikastlash;
- ◆ Jamoat tartibini buzish;
- ◆ Qutqaruv jihozlaridan ekipaj ko‘rsatmasiz foydalanish;
- ◆ Ekipajning ruxsatisiz o‘rindiqlarni almashtirish.





## Baggage allowance:

- The baggage allowance on Air Samarkand flights depends on the flight and is indicated on the passenger's ticket.

Class of service	Baggage allowance	
Economy class	Cabin baggage	Checked baggage
	Up to 10 kg, with the sum of the three dimensions not exceeding 115 cm.	Up to 23 kg 2x, with the sum of the three dimensions not exceeding 203 cm.

## Bagaj me'yorlari:

- "Air Samarkand" aviakompaniyasida yuk tashish me'yori parvoz turiga bog'liq bo'lib, yo'lovchining chiptasida ko'rsatiladi.

Xizmat turlari	Bagaj limiti	
Ekonom klass	Qo'l yuklari	Ro'yxatdan o'tgan yuklar
	Qo'l yuklari: 10 kg gacha (o'lchamlari 115 sm dan oshmasligi kerak).	Ro'yxatdan o'tgan yuk: 23 kg gacha (2 ta yuk, o'lchamlari 203 sm dan oshmasligi kerak).

**In addition to their hand luggage, passengers are allowed to carry in the cabin:** a rucksack (not more than 3 kg and with the sum of its three dimensions not exceeding 80 cm) or a lady's bag; a bouquet of flowers; outer clothing; baby food sufficient for the duration of the flight; a suit in a protective cover; a device for carrying a child (such as a cradle or pram), with the sum of its dimensions not exceeding 115 cm; medicines in an amount sufficient to cover medical needs during the flight; crutches, a cane or a walker required to ensure mobility; and goods purchased in duty-free shops at the airport, packed in a sealed plastic bag.

**Passengers are prohibited from carrying in the cabin as hand luggage:** explosive and incendiary substances; compressed or liquefied gases; flammable solid substances; oxidising substances and organic peroxides; caustic, radioactive and corrosive substances; flammable liquids; poisons and poisonous substances; firearms and weapons of any other kind (including children's toys in the shape of a weapon); and objects with sharp edges and pointed ends.

## Lost or delayed baggage

If your baggage is lost or delayed, please contact the airline or the Lost & Found office at the airport immediately to complete a lost baggage report. We will take all necessary steps to locate and return your baggage as soon as possible.

For information on the whereabouts of your luggage, please contact us at +998 (55) 706-20-32 (9:00–18:00 Samarkand time, UTC+5).

**Qo'l yuklariga qo'shimcha ravishda yo'lovchilar quyidagilarni samolyot salonida olib yurishlari mumkin:** og'irligi 3 kg dan oshmaydigan va uch o'lchamining yig'indisi 80 sm dan oshmaydigan ryukzak yoki ayollar sumkasi; guldasta; ustki kiyimlar; parvoz davomida yetarli miqdordagi bolalar ovqati; maxsus qoplamaga joylashtirilgan kostyum; bolani olib yurish moslamasi (beshik yoki bolalar aravasi), o'lchamlarning yig'indisi 115 sm dan oshmagan holda; parvoz davomida tibbiy ehtiyojlarni qoplash uchun yetarli miqdordagi dori vositalari; harakatchanlikni ta'minlash uchun mo'ljallangan qo'l triqtayoq, tayoq yoki yurish moslamasi; aeroportning duty-free do'konlaridan xarid qilingan, muhrlangan plastik qopda qadoqlangan mahsulotlar.

**Quyidagilar qo'l yuklari sifatida salon ichida olib yurishga taqiqlanadi:** portlovchi va yonuvchi moddalar; siqilgan yoki suyuqlangan gazlar; yonuvchi qattiq moddalar; oksidlovchi moddalar va organik peroksidlar; kimyoviy, radioaktiv va zanglovchi moddalar; yonuvchi suyuqliklar; zaharli moddalar; o'qotar qurollar va boshqa har qanday (shu jumladan o'yinchoq qurollar) o'tkir qirralari va uchlari bo'lgan buyumlar.

## Yo'qolgan yoki kechikkan yuk

Agar yuqingiz yo'qolsa yoki kechiksa, darhol aviakompaniyaga yoki aeroportdagi Yo'qolgan va Topilgan buyumlar byurosiga murojaat qilib, yo'qolgan yuqingiz haqida ariza to'ldiring. Yuqingizni topish va imkon qadar tezroq qaytarib berish uchun barcha zarur choralar ko'rib chiqiladi.

Yuqingizning joylashuvi haqida ma'lumot olish uchun quyidagi raqamga murojaat qiling: +998 (55) 706-20-32 (9:00–18:00 Samarqand vaqti, UTC+5).

## Carriage of animals on aircraft

Cats, dogs, birds and other small animals are acceptable for carriage only if they are domesticated and tame. Passengers must present a veterinary passport at check-in and pay an additional fee for this service.

## Norms for transporting an animal:

Weight – not more than 10 kg (including the weight of the cage or carrier bag).

Cage dimensions – the sum of the three dimensions must not exceed 115 cm.

- During the flight the cage or carrier bag containing the animal must be placed under the seat in front of you. The cage or carrier must be closed securely.

Exception: a guide dog may be transported in the passenger cabin without a cage. It must wear a muzzle and collar and remain tied to the leg of the seat occupied by the passenger it accompanies.

## Hayvonlarni havo transportida tashish

Mushuklar, itlar, qushlar va boshqa kichik hayvonlar faqat ularning uy sharoitida boqilganligi va qo'lga o'rgatilganligi tasdiqlansa tashishga ruxsat etiladi. Yo'lovchilar ro'yxatdan o'tish paytida veterinariya pasportini taqdim etishlari va ushbu xizmat uchun qo'shimcha to'lovni amalga oshirishlari kerak.

## Hayvon tashish talablari:

Og'irlik: qafas yoki konteynerning og'irligi bilan birga 10 kg dan oshmasligi kerak.

Qafas o'lchamlari: uch o'lchamning yig'indisi 115 sm dan oshmasligi lozim.

- Parvoz davomida qafas yoki konteyner yo'lovchining oldidagi o'rindiqning tagiga joylashtirilishi kerak va mahkam yopilgan bo'lishi shart.

Istisno: bo'yindiq taqilgan itlar samolyot salonida qafassiz tashilishi mumkin. Ular tumshuqbog'i va bo'yinbog' taqilgan holda, yo'lovchi o'tirgan o'rindiq oyog'iga bog'langan bo'lishi kerak.

## DO NOT:

- open a cage/container with animals while on board the aircraft;
- place a guide dog on the passenger seat, remove its muzzle or feed it on board the aircraft;
- carry reptiles, rodents, arthropods, fish, sea and river animals, sick or experimental animals, or animals and birds taken from the wild.

## Taqiqlanadi:

- qafas/konteynerni samolyot ichida ochish;
- bo'yindiq taqilgan itni yo'lovchi o'rindiq'iga qo'yish, tumshuqbog'ini olib tashlash yoki uni samolyotda ovqatlantirish;
- sudraluvchilar, kemiruvchilar, hasharotlar, baliqlar, dengiz va daryo hayvonlari, kasal yoki tajribaviy hayvonlarni hamda yovvoyi hayvonlar va qushlarni olib yurish.

## Pregnant women on an aircraft:

- Pregnant women are allowed on a flight until the 28th week of pregnancy without any medical certification of the state of their pregnancy.
- Pregnant women in the last 4 weeks of pregnancy (or the last 8 weeks for a twin pregnancy) may only board a flight if they are in possession of a medical document confirming their satisfactory state of health.
- Pregnant women are not allowed on a flight during the 7 days prior to their estimated day of delivery or the first 7 days after childbirth.

We value your comfort and are always ready to listen. If you have any questions or comments, please contact us.

Address for complaints and grievances:  
**complaints@samair.uz**

## Homilador ayollar uchun parvoz qoidalari:

- Homilador ayollar homiladorlikning 28-haftasiga qadar hech qanday tibbiy ma'lumotnomasiz parvoz qilishlari mumkin.
- Homiladorlikning so'nggi 4 haftasida (yoki egizak homiladorlikning oxirgi 8 haftasida) faqat sog'lig'ining yaxshi holatda ekanligini tasdiqlovchi tibbiy hujjat bilan parvozga ruxsat beriladi.
- Tug'ishga taxminan 7 kun qolganda yoki to'lg'oqdan keyingi dastlabki 7 kunda ayollarga parvoz qilishga ruxsat berilmaydi.

Sizning qulayligingiz biz uchun muhim va biz har doim sizni eshitishga tayyormiz. Savolingiz yoki fikr-mulohazangiz bo'lsa bizlarga murojaat qilishingiz mumkin.

Murojaat uchun: **complaints@samair.uz**



# ZEEKR 7X

RASMAN O'ZBEKISTONDA  
ОФИЦИАЛЬНО В УЗБЕКИСТАНЕ



Записаться на тест-драйв

Телефон горячей линии:

78-12-000-21

[www.zeekr-cars.uz](http://www.zeekr-cars.uz)